

MAXTUMQULI HAYOTI VA SHE'RIYATIDA E'TIQOD MASALASI

G'anijonova Dilrabo*FarDU o'zbek tili yo'nalishi**3-bosqich talabasi,***Maxmidjonov Shoxruxbek***FarDU o'qtuvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada turkman klassik adabiyotining asoschisi Maxtumquli she'riyati tahlilga tortilgan. Shoir she'rlarida e'tiqod masalasi izohlangan.*

Kalit so'zlar: *E'tiqod, tasvvuf, klassik adabiyot, turkman she'riyati, talmeh san'ati.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу поэзии Махтумкули, основоположника туркменской классической литературы. В стихах поэта затрагивается вопрос веры.*

Ключевые слова: *Вера, мистика, классическая литература, туркменская поэзия, талмудическое искусство.*

Annotation: *The article draws on the analysis of the poetry of Maxtumquli, the founder of Turkmen classical literature. In the poems of the poet, the question of faith is explained.*

Keywords: *Faith, tasvvuf, classical literature, Turkmen poetry, talmeh art.*

Turkman xalqi Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan beri yashab kelayotgan, turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlardan biridir. Turkman xalqining adabiyoti va madaniyati singari, folklor asarlari shaklida rivojlandi. Turkman xalqi asrlar davomida chet el bosqinchilari – eroniylar, arablar mog'ul istilochilari, Buxoro amirlari va Xiva xonliklari zulmi ostida qolib ketganligi sababli, turkman milliy adabiyoti va madaniyatining rivojlanishi uchun sharoit yoq edi. Shunga qaramay turkman xalqi o'z milliy tilining sofligini saqlab qoldi, o'z milliy adabiyoti va madaniyatini taraqqiy ettirish uchun kurash olib bordi.

Turkman klassik adabiyotining asoschisi Ozodiyning o'g'li Maxtumquli mamlakatda Eron shohlari hukmronlik qilgan davrda yashadi. U Xivada Sherg'ozixon madrasasida ta'lim oldi. Eron qo'shinlari bilan bo'lgan janglarda asir tushib, bir necha vaqt Eronda ham bo'lgan.

Maxtumqulining ijodi turkman klassik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. Hayotning achchiq-chuchugini totgan shoir, ko'p safarlarda bo'ldi. Katta hayot tajribasi, o'zbek va tojik adabiyotini yaxshi o'zlashtirgani sababli, u xalqqa manzur bo'lgan ko'plab g'azallar, ruboiylar qit'alari "Firog'iy" taxallusi bilan

yaratdi. Shoir ijodi juda mashhur bo'lganligining sabablaridan biri, unda tasavvuf she'riyatining an'analari mavjudligida edi. Chunki shoir she'rlarida tasavvuf falsafasi g'oyalari targ'ib qilindi. U xalq diliga yaqin bo'lgan ozodlik va erk haqida she'rlar yozdi. Masalan, "Baxt qushi", "Chaqiriq" nomli she'rlari turkman xalqini birlashishga, ulami eron bosqinchilariga qarshi kurashga chorlaydi. Shoiring ko'pgina misralari hikmat darajasiga ko'tarildi. U mehnatkash xalqning noroziligini ifodalagan "Zamonlar", "Axtaradi" kabi asarlar yaratdi. Maxtumluli she'riyatining shuhrati o'zbek kitobxonlari orasida ham keng tarqalgan. Uning ko'pgina she'rlari qo'shiq qilib ayliladi. Tanlangan asarlari bir necha marta nashr qilingan.

Maxtumluli faqat turkman adabiyotining emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotining faxri hisoblanadi. Uning she'rlari Turkmanistonda qanday e'zozlansa, O'zbekistonda ham xuddi shunday qadrlidir. Shoir she'rlarida tasavvuf ma'naviyati kuylanadi. Ayniqsa, naqshbandiylik tariqati g'oyalari Maxtumlulining har bir she'rida uchraydi. O'rta Osiyo turkiy xalqlarining ruhiga mos ohanglar, uning she'riyatini juda mashhur qilib yuborgan. Shoiring "Ko'ring", "Raygon ayladi", "Bo'lmas", "Na'masan", "O'tib boradir" kabi she'rlaridagi pand-nasihat o'quvchiga juda ta'sirli qilib berilgan. Bu she'rlardagi aytilgan fikrlar "Qur'on" va "Hadis"dagi hikmatlarning aks-sadosiday jaranglaydi.

U jamiyatni, hayotni, odamlarni teran tushungan, insoniyat erishgan dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur o'zlashtirgan, ma'naviy kamolotga erishgan komil zot bo'lgan. Mutafakkir umuminsoniyat baxtu saodati uchun jon kuydirib yashagan chog'ida o'sha davrda dunyoning turli burchaklariga sochilgan, mustaqil davlati bo'lmagan turkman xalqini hamjihat bo'lishga, yagona davlat atrofiga jiplashishga, milliy birdamlikka chaqiradi.

Maxtumluli ijodiga teran nazar tashlar ekanmiz, e'tiqodning yuksak ildizlarini ko'rishimiz mumkin. Maxtumlulining butun ma'rifati, islomiy muhabbati, ishqi, shavqi, qayg'usi she'rlarida aks etadi. She'riyat shoir qalbining ko'zqusidir. Maxtumluli she'riyati bani basharga qilingan otashin va ma'rifiy xitoblardan iborat. Maxtumluli she'riyati Qur'oni karim va hadisi shariflar ma'nolarining she'riy sharhidan iborat. Quyidagi keltirilgan misollar orqali ham shoir yuksak etiqodining go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Muhtoj aylama

Qodir Jabbor, sendan tilagim ko'pdir,
Sen meni nomardga muhtoj aylama.
Xazinangdan bergil, mening rizqimni,
Bandangni bandangga muhtoj aylama.

Shoirning “Muhtoj aylama” radifli gʻazalida talmeh sanʼatidandan unumli foydalanilganini kuzatishimiz mumkin. Qodir Jabbor-sifatining maʼnosi oliy qadar ulugʻ Zot, huzurida hamma oʻzini xor tutadigan Zot demakdir.

Holinga mening

Karam ayla, yo Rab, qudratli Subhon,
Gʻarib, gʻamgin kechgan holimga mening.

Aqlim hayrondadir, dilda pushaymon,
Bilmaslikda kechgan solimga mening.

Ushbu gʻazalda Allohning oʻzgacha sifatlar – yo Rab va qudratli Subhon tarzida talqin etilgan. Subhon soʻzi madh, maqtash, ulugʻlash maʼnolarini bildiradi. Bu baytdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, shoir iltijo qila oladigan yagoni najoti bu uning qudratli Robbisidir.

Ojizmanam, sendan oʻzga kimim bor,
Oʻz bergan joningga jabr etma, Jabbor,
Maxtumquli aytar, karamli Gʻaffor,
Boqma, qilganimga, feʼlimga mening.

Yuqoridagi baytda shoir oʻz qilmishlari va feʼlining yomonligidan jon bergan Robbisidan najot soʻrab, karamli Tangridan panoj soʻrab yolvormoqda. Bu yerda Allohning ismlaridan biri boʻlgan Jabbor – mislsiz qudratli, bandalarining ishini isloh etuvchi, ularning gunohlari uchun jazolovchi maʼnosidadir. Gʻaffor esa kechiruvchi, afv etuvchi, mehribon, shafqatli maʼnosini anglatadi. Bu ismlarni maʼnosiga qarab oʻz oʻrnida qoʻllash bu ijodkorning mahorati hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar orqali turkman adabiyoti zabardast shoiri – Maxtumquluning poetik olami va xarakter yaratish, soʻz qoʻllash mahoratiga guvoh boʻldik. Bunday yozuvchi va ijodkorlar asarlari zamon va makon tanlamaydi, barcha turkiy xalqlar adabiyoti uchun durdona asarlar boʻlib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tohirov Q. Oʻzbek turkman adabiy aloqalari. T. 1979.
2. Maxtumquli. Sheʼrlar. Toshkent. 1976.
3. Kurambojeva K. Maxtumquli sheʼriyati Oʻzbekistonda. “Fan”. Toshkent, 1984
4. Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
5. Maxmidjonov, S. D. O. G. L. (2023). O 'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.

6. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (6), 520-524.
7. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. *Modern Science and Research*, 2(6), 1231-1235.
8. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. *Интернаука*, (15-3), 75-76.
9. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 119-120.
10. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120.
11. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM" ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKLARI. *Nazariy Va Amaliy Fan*, (5), 590-592.
12. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademya.
13. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(6), 196-200.
14. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In *Конференции*.
15. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of the banned period in the stories of Naim Karimov. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 4-91.
16. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 221-226.
17. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. *International scientific journal of Biruni*, 1 (2), 213-220.

18. Oripova,, G. , & Mirzajonova,, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
19. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.